

**ALOHIDA EHTIYOJLI BOLALARINI UMUMTA'LIM TASHKILOTLARGA
JALB ETISHDA OTA-ONALARNING ROLI**

Mirsultonova Ominabonu Baxtiyor qizi

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti

Maxsus pedagogika yo'nalishi 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarini umumta'lim tashkilotlariga jalb etishda ota-onalarning roli va bolani inklyuziv ta'limga erta kiritish haqida batafsil yoritilgan.

Kalit so'zлari: inklyuziv, psixolog pedagog, ota-onsa, kompetentlik, ta'lim

Ko‘pgina mamlakatlarda inklyuziv ta'lim amaliyoti bu nazariyaning to‘g‘riligini ko‘rsatib berdi. Tadqiqotlarga ko‘ra, alohida ehtiyojli bolalar o‘z tengdoshlari bilan birga o‘qisalar, o‘rganishda, ijtimoiy muloqotda ancha yaxshi natijalarni ko‘rsatishga moyildirlar. Barcha bolalar inklyuziv ta'lim amaliyotidan yaxshi foyda oladilar. Odatta, alohida ehtiyoji bor bola rivojlanayotgan tengdosh bolalar bilan bir guruhda bo‘lishi ularga taqlid qilishga, ular bilan muloqot qilishga, ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga harakat qiladi. Rivojlanayotgan bolalar alohida ehtiyojlari bor odamlar duch keladigan muammolarni tushunib boradilar. Inklyuziv maktabgacha ta'lim tashkilotlarining o‘ziga xos xususiyatlari:

-alohida ehtiyojga muhtoj bolalarning umumiyligi ta'limi bilan muntazam guruhlarda pedagoglar bilan birgalikda mutaxassislar jamoasi shug‘ullanadilar;

-alohida ehtiyojga muhtoj bolalarning qanchasini bir guruhga muvaffaqiyatli kiritish mumkinligini aniqlab olish zarur. Odatta, bu miqdor har bir bolaning xususiyatlari turiga va pedagogning o‘z maktabgacha ta'lim tashkilotidan oladigan yordamiga bog‘liq.

Inklyuziv ta'limni erta kiritish bola o‘z tengdoshlari xatti-harakatlari bilan tanishish imkonini beradi. Inklyuziv maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar o‘z tengdoshlari bilan maxsus ta'lim ehtiyojlari bo'lgan va bo‘lmagan holda o‘zaro muloqot qilish uchun kundalik imkoniyatlarga ega bo‘ladilar.

Inklyuziv maktabgacha ta'lim tashkilotidagi bolalar:

do‘st topish;

odamlar o‘rtasidagi farqlardan qo‘rmaslik;

yaxshi ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirish;

o‘ziga yetarli adekvat baho berishni o‘zlashtirish;

nutq va nutqsiz muloqot va xatti-harakatlarning ijobiy namunalarini bilib olish.

Alohida ehtiyojli bolaga inklyuziv ta'lim berish faqatgina pedagog, maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila hamkorligida o‘z samarasini beradi. Bolaning oilasini ta'lim

va rivojlanish jarayoniga jalb qilish uchun pedagoglar har bir oilaning xususiyatlarini, ustuvorliklarini, istiqbollarini va qadriyatlarini tushunishlari kerak. Inklyuziv ta’lim – bolalar, ota-onalar va ta’lim mutaxassislarining birgalikdagi faoliyatga faol jalb etilishi: birga rejalashtirish, umumiy tadbirlar o’tkazish, seminarlar va bayramlarni tashkil etish orqali haqiqiy jamiyatning modeli sifatida inklyuziv jamiyatni yaratishdir.

Oilalar MTT bilan hamkorlik qilish uchun birinchi qadam ijtimoiy va ta’lim muhitining yakdilligidir va shu bilan birga ota-onalar va bolalar o’zlarini hurmatli, ishonchli va kerakli ekanliklarini xis qilishlari zarur.

Ota-onalarning pedagogik kompetentligini oshirish va oilalarga alohida ehtiyojlari bo’lgan bolalarni jamiyatga moslashtirish va integratsiyalashga yordam berish uchun bir qator vazifalarni hal qilish kerak:

maktabgacha ta’lim tashkilotlari mutaxassislari bilan barcha tarbiyalanuvchilarining ota-onalarini o’zaro hamkorlikka jalb etish;

ota-onalarni individual ta’lim xaritasini yaratishga jalb qilish;

ota-onalarning pedagoglar, tarbiyachilar, psixologlar bilan yaqin aloqada bo’lish motivatsiyasini shakllantirish va bu orqali bola haqida eng to’liq ma’lumot olish;

ota-onalarning psixologik-pedagogik savodxonligini oshirish, ularni uyda bola bilan ishlash va uni maktabgacha ta’lim tashkilotidan tashqarida qanday rivojlanadirish haqida ma’lumot berish;

ota-onalarni bolalar bilan birgalikda rivojlaniruvchi reabilitatsiya va dam olish ishlariga jalb etish.

Alohida ehtiyojli bolalarning ota-onalari bilan ishlash tamoyillari:

– bola va oilaning shaxsiy xususiyatlarini inobatga olingan holda qulay, xavfsiz sharoitlarni ta’minlash;

– shaxsiy insonparvarlik tamoyili – bolaga va oilaning har bir a’zosiga har tomonlama hurmat va muhabbat bilan munosabatda bo’lish, ularga ishonch bildirish;

– umumiylit tamoyili – psixologik yordam faqat tarbiyachi, psixolog, o’qituvchi-defektolog, musiqa rahbari, ota-onalar bilan umumiylit holda ko’rib chiqilishi mumkin;

– erkinlik tamoyili – mazmuni va usullari ota-onalar uchun aniq bo’lishi kerak.

Ota-onalar ishtirokida bola bilan individual mashg’ulotlar muayyan bola bilan ishslashning alohida metodlarini namoyish etish uchun o’tkaziladi. Bunday mashg’ulotlar nafaqat tanishtirish, balki bolaning ota-onasiga asosiy usul va uslublarni o’rgatish imkonini beradi. Shu bilan birga, bu jarayon ota-onalarning bolaga bo’lgan qiziqishlarini va uning imkoniyatlarini rivojlanirishga yordam beradi. Shuningdek, ota-onalarning psixologik-pedagogik savodxonligini oshirishga ko’maklashadi. Mutaxassislar suhbatlari va maslahatlari. Bu alohida ehtiyojga ega bo’lgan bolalarning ota-onalariga amaliy yordam berib, uning mohiyati psixologik, tarbiyaviy, pedagogik, tibbiy, ijtimoiy va hokazo muammoli vaziyatlarning yechimini topishdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. МирзиёевШ.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз.– Т., Ўзбекистон. 2016.
2. МирзиёевШ.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш юрт тараққиёти ва Халқ фаровонлиги гарови.-Тошкент, Ўзбекистон, 2017.– 48б.
3. Шомахмудова Ш. “Махсус ва инклузив таълим” услубий қўлланма.– Т.: 2011 й.